

ABDULLA SHER IJODIDA IJTIMOIY VOQELIKNING LIRIK TALQINLARI

Sayyora Xaqnazarov

FarDU katta o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Sher lirikasi va uning ijodidagi ijtimoiy qarashlarning lirik talqinlari haqida so'z yuritiladi. Abdulla Sher hayyotning tiyraklik bilan kuzatadi va undagi har bir hodisalarga o'z munosabatini badiiy ifodada talqin etadi.

Kalit so'zlar: falsafiy mushohada, badiiy ifoda, lirik talqin, badiiy ifoda, tasviriy vosita, badiiy-konseptual funksiya.

Abdulla Sher ijodidagi yetakchi g'oyalardan biri lirik she'rlariga falsafiylikni singdirishdir. Falsafiy dunyoqarash kundalik faoliyat, dunyoviy, diniy, ilmiy bilimlar, hayotiy kuzatishlar va ijtimoiy tarbiya ta'sirida zaiflik, ruhiy tushkunlik, g'am-g'ussa, nadomat, o'z yaqinlari va Vatan taqdirini o'ylash kabi xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladi. Falsafiy bilimni chuqr egallagan shoir va faylasuf Abdulla Sher kitobxonning aqliy salohiyatini yuksaltiradigan, estetik didini charxlaydigan badiiy asarlar yaratdi. Uning asarlari insonni keng fikrlashga, dunyo hodisalarini tiyraklik bilan kuzatishga va teran mushohada yuritishga undaydi:

Men seni izlayman. tinmasman bir dam.

Agar men topmasa, topar so'zlarim

So 'ng ufqqa bosh qo'yib olarkanman dam,

Maysalarga umr bo'lar izlarim. [1:114].

Shoirning kamtarligi, samimiyligi ushbu misralarda sezilib turibdi. Shoir "So'ng ufqqa bosh qo'yib olarkanman dam", "Maysalarga umr bo'lar izlarim" – sinekdoxadan, ya'ni qismlar ma'nosи orqali butun bir hodisani ifodalaydi. Shoir poetik ko'chimlar yordamida lirik qahramonni tuyg'ularini ta'sirli ifodalaydi va shu bilan birga she'r

mohiyatiga falsafiy fikrni singdirib yuboradi. Shoir so‘z sehrini insonga ta’siri juda kuchli ekanini bilgan holda, har bir satrlarga, she’rning g‘oyasiga, badiiy tuzilishiga va ma’nosiga ham katta e’tibor qaratadi.

She’rning mazmunan boyligi, shoirning dunyoqarashi, uni ijtimoiy hayotga bo‘lgan munosabati va mushohadasiga ham bog‘liqdir. She’rdagi mazmun va mantiq ijodkor falsafiy qarashlarini, uni atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini anglatadi. Faylasuf - shoir dunyoning har bir hodisasini tiyraklik bilan kuzatadi va ijtimoiy hayotdagi voqeja va hodisalarga o‘zining fikr- mulohazalarini, qarashlarini bildira oladi. Fikrlar ham oddiy va jo‘n emas, balki insonni o‘ylashga, aqliy salohiyatini ishga solishga undaydigan falsafiy mushohadalardan iboratdir:

*Armonlarni unut butunlay,
Hammasiga sen jilmayib boq.
Va yarq etib uchgan yulduzday
Nur shaklida yerga qarab og’. [2:619]*

“Va yarq etib uchgan yulduzday – ko‘chimning o‘xshatish shaklidan foydalanib, “Nur shaklida yerga qarab og” – sinekdoxa, qismda butun bir hodisani ifoda etadi. Shoir ushbu satrlarida badiiy tasvir vositalari orqali hayot haqiqatini oshkor etadi. Unda tushkunlik kayfiyati sezilmaydi, balki hayotning har bir nafasini quvnoqlik va shijoat bilan o‘tkazish muhim ekanligi ta’kidlanadi. Bu satrlar insonni hayot to‘sqliariga yengilmasdan olg‘a qadam bosish, tushkunlikka tushmaslik, doimo oldinga intilish fazilatlarini shakllantiradi. Ijodkorning falsafiy qarashlari kishini ruhan baqquvat qiladi, hayot sinovlariga chidamli va bardoshli qilib tarbiyalaydi. Ijodkor falsafiy qarashlari insonning hissiyoti, irodasi va faoliyatini belgilab beradi, ularni boshqaradi, shaxsni omilkorlikka, samarali faoliyatga undaydi. Dunyoni his qilishi esa uni aqliy jihatdan tushunishga, muayyan dunyoqarashning shakllanishiga, mushohadali bo‘lishiga olib keladi.

Ijodkor falsafiy dunyoqarashi tarkibida hissiyot va aql muhim o‘rin tutadi. Hissiyot dunyoqarashning emotsiyonal-ruhiy jihat bo‘lib, dunyoni tushunish esa dunyoqarashning aqliy shaklidir. Shoir hissiyoti – quvonch, shodlik, zavqlanish, hayotdan mammunlik,

hayratlanish kabi tuyg‘ular majmui bo‘lib, bu kechinmalar uning she’rlaridan chuqur o‘rin olgan:

Bu umr o ‘tkinchi-ortga qaytolmas;

Sen – otliq, u esa yo ‘rg ‘a baytalmas.

Tik turib noming ayt toki tiriksan

O ‘liklar turolmas, so ‘z ham aytolmas. [3:624]

Abdulla Sher tasvir obyektini ichki ziddiyat bilan ochish, she’r mazmunini bo‘rttirib ko‘rsatish uchun leksik-frazeologik antonimlardan foydalanadi. Antonimlar orqali shoir she’rdagi obrazlilik va estetik ta’sirchanlikni oshirgan. Sen – otliq, u esa yo‘rg‘a baytalmas – leksik frazeologik antonim bo‘lib, poetik tasvir emotsiyonalligini kuchaytirishga xizmat qilgan. Shoir leksik-frazeologik antonimlar yordamida niyatini aniq-ravshan aytishga harakat qilgan. Foydalangan badiiy ifoda va tasviriy vositalar she’rning tarbiyaviy funksiyasiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. She’rlarning tarbiyaviy ahamiyati falsafiylikka yo‘g‘rilgan bo‘lib, shaxsni aqlan va ruhan kamolga yetkazadi, jamiyatning ma’nani yuksalishiga xizmat qiladi. Adabiyotning tarbiyaviy ahamiyatiga juda qadim davrlardan alohida e’tibor berib kelinishi beziz emas. Xususan, qadimgi yunon faylasufi Aflatuning “Davlat” asarida adabiyotning tarbiyaviy tomonidan qanday foydalanish kerak, kimga, nimani va qanday o‘qitish kerak degan masala keng qo‘yilgan. Sharq xalqlarida ham yosh avlodni tarbiyalashda badiiy adabiyotdan keng foydalanilgan. Shu bois ham Sharq mumtoz adabiyotida “Guliston”, “Bo‘ston”, “Qutadg‘u bilik”, “Hibat ul- haqoyiq”, “Qobusnom” singari didaktik asarlar yaratilgan.

Abdulla Sher ham shunday asarlar ta’sirida she’rlarining badiiy-konseptual funksiyasiga ahamiyat qaratadi. Shoir hayotni, jamiyatning joriy holatini badiiy tahlil qilish orqali olam va odam haqida yaxlit badiiy hukm – badiiy konsepsiyanı ishlab chiqishga intiladi. Bu jihat bilan shoir falsafaga yaqinlashadi. Shu o‘rinda ijodkor ma’no serqirraligi bilan xarakterlanuvchi badiiy obrazlarga tayanadi. Abdulla Sher jahon falsafiy tafakkuri Dante, Shekspir, Gyote, L.Tolstoy, F.Dostoyevskiy, T.Mann, A.Kamyu singari o‘nlab ijodkorlar fikrlari bilan boyigani, o‘z vaqtida ulardan turtki olganligi, shubhasizdir.

Haqiqatda esa badiiy konseptuallikka intilish iqtidor bilan yozilgan har qanday badiiy asarga xosdir. Xayyom ruboiylari, hazrat Navoiy dostonlari, Abulla Qodiriy romanlari, A.Qahhor hikoyalari, O.Yoqubov nasri, A.Oripov she'riyati — barida hayot, olam va odam haqidagi chuqur falsafiy mushohadalar mavjud. Abdulla Sher ham ular an'anasini davom ettirgan holda she'rlari g'oyasiga falsafiylikni singdirib, olam va odam holatini badiiy tahlil qilishga harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулла Шер. Гул йиллар, булбул йиллар: Юксак тоғ тубида..... Кичик сайланма. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – Б.114
2. Абдулла Шер. Танланган асарлар: Чопаверма. Шеърлар, достонлар.–Тошкент: Sharq, 2021. – Б.619
3. Абдулла Шер. Танланган асарлар: Рубоийлар. Шеърлар, достонлар.–Тошкент: Sharq, 2021. – Б.624